

VIRTUAL MULOQOTGA XOS NUTQ SHAKLI

K.K.Ahmedova

UrDU, tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda keng ommalashib borayotgan virtual ya'ni onlayn muloqot tushunchasi, nutqning og'zaki va yozma shakli, shuningdek, muloqotning yangi ko'rinishiga xos bo'lgan yozma so'zlashuv nutq shakli tushunchalariga batafsil to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: yozma so'zlashuv nutqi, zamonaviy kibermakon, kommunikativ muhit, sms, "Leet speak", ommaviy muloqot.

Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari mavjud bo'lib, har ikkala nutq shakli adabiy tilga tayanadi. Biroq yozma nutq amal qiladigan punktuatsion, imloviy me'yorlar og'zaki nutqda, og'zaki nutq amal qiladigan talaffuz me'yorlari, intonatsion me'yorlar yozma nutqda yo'q[1]. T.Qudratov o'zining "Nutq madaniyati asoslari" nomli boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetlari uchun mo'ljallangan qo'llanmasida og'zaki nutqning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

1. Og'zaki nutq tezkorlik bilan(avtomatik tarzda) amalga oshadi;
2. Og'zaki nutqda so'z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi bo'lgan fikrga monand holda tezkorlik bilan tanlanadi;
3. Og'zaki nutq tahrir imkoniyatidan mahrum;
4. Og'zaki nutqda, odatda, muloqot uchun eng zarur narsalargina zuhur etiladi;
5. Og'zaki nutq so'z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag'al bo'ladi;
6. Og'zaki nutqda so'zlovchining faol nutqiy harakati to'xtam(pauza), ohang, urg'u, turli hil imo-ishoralar fikrning tinglovchiga yetib borishida ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq esa og‘zaki nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: nutqni yozayotganda muallif vaqt jihatidan bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, u o‘z nutqi qismlarini va butun nutqni qayta-qayta tahrir qilishi, fikr uchun eng mos imkoniyatlarni tanlashi, gap tuzilishini qulaylashtirishi mumkin[2].

Yuqorida yozma va og‘zaki nutqning bir-biridan ajralib turuvchi jihatlarini ko‘rib o‘tgan bo‘lsakda, bu ikkala nutq shakli orasida unchalik ham tafovutlar katta emas degan qarash tarafdorlari ham yo‘q emas. Xususan, M.Sorokina o‘zining “Особенности интернет-общения как новой среды коммуникации” nomli magistrlik darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida og‘zaki nutq va yozuv o‘rtasidagi chegaralarni aniq belgilab olishning iloji yo‘q, chunki vaqt o‘tishi bilan ba’zi hodisalar bir aloqa shaklining sifatlaridan boshqasiga o‘tadi, masalan, bir so‘zli jumladan foydalanish dastlab og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan bo‘lsa, tez orada yozma matnlarga ham kirib keldi[3].

Komputer texnologiyalarini ishlab chiqishdan ko‘zlangan dastlabki maqsad hisoblash jarayonlarini yengillashtirish hamda tezligini oshirish bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan insonlar komputerdan nutqning og‘zaki va yozma shakllarini o‘zida mujassamlashtirgan kommunikativ muhitning yangi bir ko‘rinishi sifatida foydalana boshladilar.

Bundan bir necha yillar oldin ham “so‘zlashuv nutqining yozma shakli yo‘q va mana shu jihati bilan boshqa funksional uslublardan tubdan farqlanadi. So‘zlashuv nutqi og‘zaki shaklda yuzaga chiqadi”[4] degan fikrlar hukmron edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Bugungi kunda mohiyatan lingvistik o‘zaro munosabatlarning yangi shakli – yozma so‘zlashuv nutqi paydo bo‘ldi[5].

Bir qator manbalarda, so‘zlashuv nutqi asosan oddiy so‘zlashuv nutqi hamda adabiy so‘zlashuv nutqiga ajratilishi keltirib o‘tilgan bo‘lsa, S.Karimov o‘zining “O‘zbek tili funksional stilistikasi” monografiyasida so‘zlashuv nutqini uch guruhga ajratib o‘tadi: adabiy-so‘zlashuv, muomala-maishiy, oddiy nutq[4]. Adabiy so‘zlashuv nutqi rasmiy davralarga xos bo‘lib, asosan ommaviy axborot vositalari tili hisoblanib, davlat idora va tashkilotlarida, ta’lim muassasalarida keng

qo‘llaniladi. Oddiy so‘zlashuv nutqi esa ko‘cha tiliga xos bo‘lib, asosan norasmiy doiralarda qo‘llaniladi.

Virtual muloqot jarayoniga xos bo‘lgan nutqning yozma shakli o‘zida nafaqat yozma balki og‘zaki nutq jarayonida uchraydigan jihatlarni hamqamrab olgan. Bu xususida A.Yu.Kruglov yozma internet muloqot tili o‘zida ham yozma, ham og‘zaki nutq xususiyatlarini jamlaganligi bois gibril til sanaladi deb ta’kidlab o‘tgan[6]. Klyuyev ham bu borada anchayin qiziqarli bir fikrni bildirib o‘tgan: “Muloqotning yozma elektron shakli “og‘zaki nutqning uchinchi turi” sifatida qaralishi mumkin”[7].

Zamonaviy kibermakondagi muloqot matnga xos belgilardangina iborat bo‘lib qolmasdan, balki multimedia vositalarini ham o‘z ichiga oladi, ya’ni turli xil grafiklar, tovushlar, rang-barang tasvirlar, videolar ham onlayn muloqot jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Demak, zamonaviy komputer texnologiyalari kun sayin takomillashib borar ekan, xabar matnlari ham mos ravishda o‘zgarishga uchrab, yangicha tus kasb etib bormoqda.

Darhaqiqat, fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida xalqaro globallashuv jarayonining tezlashuvi natijasida internet muloqoti vositasi sifatida so‘zlashuv uslubining yozma shakli paydo bo‘ldi. Yozma so‘zlashuv nutqining dastlabki ko‘rinishi sifatida u qadar ommalashmagan maktub, XX asr oxirida telefon orqali qisqa xabar (sms – short message service) shaklida qo‘llangan bo‘lsa, XXI asrga kelib internet kommunikatsiyasi paydo bo‘lishi bilan ommaviy muloqot turiga aylandi[8].

SMS xabarlarini nafaqat biror hodisa, yangilik to‘g‘risida ma’lumot yetkazish uchun, balki har xil she’rlar, kichik-kichik hikoyachalar, latifalar yoki barqaror birikmalarni jo‘natish orqali o‘z tuyg‘ularimiz, fikr-mulohazalarimiz, ichki kechinmalarimiz bilan o‘rtoqlashish imkonini ham beradi. Bunday qisqa xabarlarning kun sayin zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan hamnafas ravishda taraqqiy etib, o‘zgarib borishi lingvistlarning diqqat-e’tiborini jalb qilayotgani bejizga emas. Zeroki, xuddi jonli muloqotdagi kabi bu “til”da ham

avvalambor salomlashib, suhbatdoshlar o‘zaro hol-ahvol so‘rashgach, suhbatdan ko‘zlangan asosiy maqsadga o‘tiladi.

Hozirgi kunga kelib, bundan 30-40 yillar oldin urfda bo‘lgan qo‘lyozma xatlar, tabriknomalar o‘rnini sms xabarnomalar, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar egalladi desak xato bo‘lmaydi deb o‘ylaymiz. Chunki yozuvning bu turi anchayin qulay va vaqt borasida ham unumlidir.

Internet makonda foydalanuvchilar fikr almashish, o‘rganish, hamfikir maslakdosh topish kabi turli maqsadlarda virtual jamiyatlarda birlashadilar. Ular uchun umumiy jihat virtual makonda o‘zaro muloqot qurish sanalib, bu foydalanuvchilar birgalikda virtual makrojamiyatni tashkil qiladilar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu jamiyat a’zolari bir-birlari bilan aloqa qilish uchun maxsus tildan foydalanishga harakat qilishadi. Shu asnoda “Leet speak” – yozuvning yangi shakli internet foydalanuvchilari orasida ommalasha bordi.

“Leet speak” yoki “Leet” ingliz tili yozuvining o‘zgargan shakli bo‘lib, uning son ko‘rinishidagi shakli “1337” sifatida qabul qilingan. Bu yozuv shakli faqat yozma nutqqa xos bo‘lib, uni og‘zaki nutqda qo‘llashning imkoni yo‘q. “Leet speak” ning asosiy vazifalari harflarning maksimal qismini raqamlar va grafiklar bilan almashtirish hisoblanib, ayniqsa ushbu yozuv transformatsiyasini kirill yozuvidan foydalanuvchilar aksariyati ishlatadi va bunday urf sms matnlaridagi rus so‘zlarini lotin yozuvida yozuvchi yoshlar yozishmalarida ko‘pincha uchraydi[9].

Bu yozuv shakli shu qadar ommalashib boryaptiki, bugun u o‘z Leet alifbosiga ham ega ekanligi ko‘pchilikka sir emas[10]. Tan olish kerakki, Leet ingliz tilida muloqot qiluvchilar orasida ancha keng tarqalgan bo‘lsada, aksariyat o‘zbek yoshlari nutqida ham ushbu yozuv shakliga xos unsurlarni kuzatishimiz mumkin va bu jarayon brogan sari yanada ommalashadi degan fikr o‘zini to‘laqonli ravishda oqlaydi deb hisoblaymiz. Chunki u ancha qulay va shu bilan birga yuqorida aytib o‘tganimizdek, virtual makondagi makrohamjamiyat a’zolari tomonidan qo‘llanilish doirasi sezilarli darajada keng.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. J. Omonturdiyev. Sh. I. Abduraimova. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati (bakalavr va magistrlar uchun uslubiy qo‘llanma). Toshkent, 2016.
2. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993.
3. Sorokina M.V. Osobennosti internet-obsheniya kak novoy sredi kommunikatsii. Vipusknaya kvalifikatsionnaya rabota. – Belgorod, 2019.
4. Karimov S. O‘zbek tili funksional stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2010.
5. Vinogradova T.Yu Spetsifika obsheniya v internete // Russkaya i sopostavitelnaya filologiya: Lingvokulturologicheskiy aspect. Kazan, 2004.
6. Kruglov A.Yu Komputerno – oposredovannoe obsheniye kak sotsialnoe yavleniye / A.Yu. Kruglov. – SPb.: 2000.
7. Klyuyev Ye.V. Rehevaya kommunikatsiya: Uchebnoe posobie dlya universitetov I vuzov / Ye.V.Klyuyev. – M.: 2000.
8. Sh. Shaxabitdinova, D.Rustamov, D.Popov, D.Rustamova, B.Abdullayev, Sh. Miralimova. Ommaviy lisoniy madaniyat. Jamoaviy monografiya. – Andijon: Step by step print, 2020.
9. L. Shukurillayeva. “Leet speak” yoxud bugungi kunda qanday yozuvdan foydalanamiz. Lingvist (Ilmiy maqolalar to‘plami) III. – Toshkent: “Akademnashr”, 2012.
10. <https://images.app.goo.gl/TyLo6XBMW1teDkCD7>

